



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI
O‘ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I

50-son

5 - may 2025-yil

**Meva-sabzovot mahsulotlari uchun zamonaviy qadoqlash mahsulotlariga
hamda ularni ishlab chiqarishga quyiladigan texnik talablar va zamonaviy
qadoqlash mahsulotlarini elektron reestrni yuritilishini yo‘lga qo‘yish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 8 apreldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-136-son qarorida belgilangan topshiriqlarga asosan,

BUYURAMAN:

1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha etakchi xorijiy davlatlar tajribasiga asosan meva-sabzovot mahsulotlari uchun zamonaviy qadoqlash mahsulotlariga hamda ularni ishlab chiqarishga qo‘yiladigan texnik talablar 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. O‘rnatilgan texnik talablarga javob beradigan zamonaviy qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning elektron reestrini yuritish tartibi 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Agentlikning barcha tizim tashkilotlari rahbarlariga, zamonaviy qadoqlash mahsulotlariga hamda ularni ishlab chiqarishga qo‘yiladigan texnik talablar ularning muvofiqligini baholashda, akkreditsiyadan o‘tkazish jarayonlarida va davlat nazoratini amalga oshirishda inobatga olinsin.

4. RAXT boshqarmasi (Usmanov), SRTSAOEK boshqarmasi (Kasimov), MBBTSAO boshqarmasi (Dodoyev), TRSBD AO boshqarmasi (Xodjikariyev):

o‘rnatilgan talablarga javob beradigan zamonaviy qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning elektron reestri yuritilishini tashkil etish;

ishlab chiqaruvchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni doimiy ravishda Karantin agentligiga taqdim etib borilishini yo‘lga qo‘yish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur bayonda belgilangan topshiriqlar bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari A. Abdukayumov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Jumanazarov